



InnoWeek-2025 doirasida “XXI asr ilm-fani va biznesda ayollar: yutuqlar va muammolar” mavzusida xalqaro forum bo’lib o’tdi

Forumda O’zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vaziri K.Sharipov ochib berdi hamda bugungi kunda ayollarning ilm-fanda yanada yuksalayotgani, ularga davlat tomonidan berilayotgan keng imkoniyatlar natijasi ekanini ta’kidladi.

Mazkur Forumda Fanlar akademiyasi vitse-prezidenti Shahlo Turdikulova ham o’z ma’ruzasi bilan ishtirok etdi. Shahlo Turdikulova ilm-fanda ayollarning o’rni, ularga yaratilayotgan imkoniyatlar, ilmiy faoliyat natijalarida olima ayollarning ulushini, shuningdek, ilm-fanda ayollar sonining ko’payishi nafaqat jamiyatda tenglikni ta’minlashini, balki ilm-fanni yanada rivojlantirishga xizmat qilishini ta’kidladi.





Mazkur forumning asosiy maqsadi – ilm-fan, innovatsiyalar va biznesda ayollarning roli va salmoqli hissasini ko’rsatish, bu borada erishilgan yutuqlarni tahlil qilish, mavjud muammolarni muhokama qilish hamda ularni hal etish yo’llarini belgilashdan iborat bo’ldi. Shuningdek, tadbir gender tengligini ta’minlash, ayollar tadbirkorligini rivojlantirish va innovatsion jarayonlarda xotin-qizlarning ishtirokini kengaytirish bo'yicha xalqaro hamkorlikni mustahkamlash uchun muhim platforma vazifasini o'tadi.